



ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МАЪМУРИЙ- ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШИНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Алихонов Бехзод Низамидинович

Тошкент давлат юридик университети

мустақил изланувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20539694>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil

Ma'qullandi: 15-may 2026 yil

Nashr qilindi: 31-may 2026 yil

KEY WORDS

жамоат хавфсизлиги, темир
йўл транспорти, транспорт
хавфсизлиги, маъмурий-
ҳуқуқий тартибга солиш,
қонунчилик.

ABSTRACT

Мазкур мақолада темир йўл транспортида жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг маъмурий-ҳуқуқий тартибга солишининг назарий ва ҳуқуқий асослари таҳлил қилинган. Жамоат хавфсизлиги тушунчасининг мазмуни ҳамда унинг темир йўл инфратузилмасидаги ўрни илмий-амалий жиҳатдан асосланган. Мақолада транспорт хавфсизлиги институтининг шаклланиши, мавжуд муаммолар ва қонунчиликдаги бўшлиқлар ёритилиб, маъмурий-ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштиришга қаратилган илмий хулосалар ва амалий таклифлар илгари сурилган.

Темир yo'l transporti (teмир yo'l) – mamlakatning yo'lovchi va yuklarni tashishga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlovchi, uning tarkibiga korxonalar, muassasalar va ishlab chiqarish hamda ijtimoiy yo'naltirilgan tashkilotlar kiruvchi yagona ishlab chiqarish-texnologik majmuidir. Темир yo'l transportini boshqarish markazlashgan tartibda amalga oshiriladi va ushbu sohada davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining vakolatiga kiradi.

Hozirgi sharoitlarda teмир yo'l transporti O'zbekiston hududida hamda uning tashqarisida ham yo'lovchilar va yuklarni tashishning eng muhim funksiyasini ta'minlaydi hamda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa vazifalarni hal etishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida qatnashadi. Bugungi kunda O'zbekistonning teмир yo'l transporti kompleksi ulkan odamlar oqimi, ulkan miqdordagi moddiy boyliklarni harakatlantirish bo'yicha harakat yo'llari tizimini, shuningdek teмир yo'l transporti faoliyatini ta'minlovchi vositalar va infratuzilmani o'z ichiga oladi.

Темир yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashning nazariy-huquqiy jihatlari, amaliyoti va mexanizmini o'rganish milliy huquqshunoslik faniga bir qator dolzarb vazifalarni yuklaydi. Темир yo'l transportining ahamiyatini quyidagi ko'rsatkichlar tasdiqlaydi: mamlakat teмир yo'llarining umumiy uzunligi qariyb besh ming kilometrni tashkil etadi va bu ko'rsatkich muntazam ravishda ortib bormoqda; teмир yo'l transportida yo'lovchi tashish hajmi 10 million nafardan ortiq; teмир yo'l transportida yuk tashish hajmi bir yilda 102 678

million tonnadan oshadi [1]. 2023-yilda O'zbekiston Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida (Logistics Performance Index – LPI) 88-o'rinni egallagan.

Temir yo'l transporti doirasida har kuni infratuzilma va yo'l xo'jaligi faoliyatini ta'minlovchi xodimlardan tashqari, ushbu xizmatlardan foydalanuvchi yuz minglab yo'lovchilar bo'ladi. Shu sababli temir yo'l transportida ko'plab huquqbuzarliklar sodir etiladi va bu mazkur sohada jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalarining ahamiyatini oshiradi. 2024-yilda temir yo'l transporti obyektlarida 31 082 ta ma'muriy huquqbuzarlik va 1 474 ta jinoyat qayd etilgan. "Jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi muhim omillardan biri bu aholining o'zini xavfsiz his qilish darajasi hisoblanadi" [2]. Shu bilan birga, BMT tomonidan 1992-yilda Rio-de-Janeyroda qabul qilingan Deklaratsiyada xavfsizlik nuqtai nazaridan ekspertiza o'tkazishning majburiyligi belgilab qo'yilgan. Bularning barchasi ushbu sohani huquqiy jihatdan ta'minlash, samarali qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatini tashkil etishni talab etadi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashning ma'muriy-huquqiy tartibga solishining nazariy va metodologik jihatlarini o'rganishdan avval "jamoat xavfsizligi" kategoriyasining mohiyati va mazmunini tahlil qilish zarur. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilganidek, "jamoat" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, birlashma, uyushma, guruh, ko'pchilik, ya'ni ommaga taalluqli ekanligini bildiradi; "xavfsizlik" esa xavf-xatarning yo'qligi, xavf mavjud bo'lmagan holatni anglatadi.

Huquqiy fanlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash muammolari anchadan buyon o'rganilmoqda. Avvaliga mazkur muammo faqat ma'muriy huquq doirasida ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda u tarmoqlararo ahamiyat kasb etdi. A.F. Joldasov ta'kidlaganidek, jamoat xavfsizligini ta'minlash huquqiy tartibga solish sifati yangicha bosqichga ko'tarildi, ya'ni u "faqat ma'muriy-huquqiy tartibga solish" doirasidan chiqdi [8]. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta'minlashning ma'muriy-huquqiy jihatlari, jumladan temir yo'l transportida, hanuz dolzarbligini yo'qotmagan, ayrimlari esa yanada chuqur va har tomonlama tadqiq etilishni talab qiladi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, mazkur masalada yagona yondashuv va yagona ta'riflarning mavjud emasligi ob'yektiv (tabiiy) holatdir. Bu, birinchidan, tadqiqot o'tkazilgan davrning o'ziga xos xususiyatlari; ikkinchidan, tadqiqot qamrab olgan obyekt va predmetlarning holati; uchinchidan esa mazkur sohadagi davlat siyosati va jamiyat ehtiyojlari bilan izohlanadi. Ushbu yondashuv va ta'riflar ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi munosabatlar natijasi sifatida jamoat xavfsizligini murakkab tizim sifatida har tomonlama o'rganish imkonini beradi".

Xavfsizlik nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar xavfsizlikni shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati sifatida ta'riflash imkonini beradi. Entsiklopedik adabiyotlarda esa quyidagicha ta'rif beriladi: "xavfsizlik (ing. safety, security) – shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari ichki va tashqi tahdidlardan himoyalangan holatidir. Xavfsizlikning asosiy obyektlari: shaxs – uning huquq va erkinliklari; jamiyat – uning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini; davlat – uning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi". Uni ta'minlash va muhofaza qilish davlat va uning vakolatli organlari zimmasiga yuklanadi. Demak, jamiyat, davlat va shaxs xavfsizligini ta'minlash davlatning eng muhim funksiyasi hisoblanadi.

S. A. Panarin xavfsizlik tushunchasining kamida uch ma'noni ifodalashini qayd etadi: "xavfsizlik – bu ko'p qirralik, muayyan holat; xavfsizlik – bu uning qanday bo'lishi haqidagi tasavvur; xavfsizlik – bu aniq maqsad". Bu nuqtai nazardan, "xavfsizlik" ilmiy-huquqiy kategoriyasi hodisa, xususiyat, holat, huquqiy munosabat, funktsiya, prinsip, qonuniyat, nazariya, shuningdek xavf va tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar majmui sifatida namoyon bo'lishi mumkin".

I.I. Boboqulovning fikriga ko'ra, xavfsizlik xavfsizlik subyektlarining ehtiyoj va manfaatlarini qondirishga qaratilgan faoliyatini anglatadi. Uning muhim elementi manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy va boshqa shart-sharoitlarning mavjudligidir. Shu bilan birga, xavfsizlik hayotiy manfaatlarining tashqi va ichki

tahdidlardan himoyalanganligi holati sifatida ham talqin qilinadi. Ko'rib turganimizdek, bu yerda mazkur tushunchaning faoliyat jihatlarini alohida ta'kidlanadi.

Xavfsizlik mohiyatini tushunishdagi, go'yoki, bir qarashda xilma-xillikka qaramay, bizning fikrimizcha, qayd etilgan ta'riflar ushbu murakkab fenomenning ma'lum bir jihatini yoki xususiyatini aks ettiradi. Ularning yig'indisi ushbu hodisaning yaxlit manzarasini tashkil qiladi. Endi "jamoat xavfsizligi" tushunchasini ko'rib chiqamiz. Masalan, I. Ismoilov jamoat xavfsizligiga keng ta'rif beradi: "jamiyatning asosining negizi bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy toifa bo'lib, ijtimoiy normalar (huquq normalari, ahloq qoidalari va boshqalar)ga rioya etishi natijasida qaror topgan ijtimoiy munosabatlar tizimini aks ettiradi". U jamoat xavfsizligini himoyalanganlik holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlar majmuasi sifatida kompleks hodisa deb ta'riflaydi. Rossiyalik olim D.N. Baxrax ta'kidlaganidek, mazkur tushunchaning ilmiy muomalaga kiritilishi ayrim huquqiy hodisalarni ishlab chiqish va ularning jamoat munosabatlariga ta'sirini o'rganish har doim ham kutilgan natijani bermaganligi bilan bog'liq. Haqiqiy voqelikda jamoat xavfsizligi instituti faoliyat ko'rsatadi va jamiyat rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xitoylik tadqiqotchi Sh. Tang ishlab chiqqan xavfsizlik konsepsiyasida jamoat xavfsizligi muhim o'rin tutadi. Jamoat xavfsizligi – insonlar hayoti, sog'lig'i, mulki va tirik tabiatga zarar yetkazilishi ehtimolini istisno etuvchi voqelik holati sifatida talqin qilinadi. B.P. Kondrashovning fikricha, jamoat xavfsizligi – davlat va jamiyat tomonidan daxlsizligi kafolatlangan, shakllangan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi. V.V. Gushchin esa jamoat xavfsizligini "ijtimoiy xavfsizlik" tushunchasining sinonimi sifatida ko'radi [7, 98-106 b.].

Boshqa tadqiqotchilar jamoat xavfsizligi tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradilar: "shaxs, davlat va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari jamoat uchun xavfli qilmishlar, tabiiy ofatlar, falokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar, ularning barqaror rivojlanishiga tahdid soluvchi sharoitlar va omillar ta'siridan himoyalanganlik holati hamda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining kafolatlangan ravishda amalga oshirilishi va muhofaza qilinishi bo'lib, mazkur munosabatlar ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinadi". Shuningdek, boshqa olimlarning asarlarida ham ushbu pozitsiyani qo'llab-quvvatlovchi fikrlar bayon etilgan [4, 88-b.].

Shunday qilib, ko'pchilik manbalarda, jumladan o'quv adabiyotlarida jamoat xavfsizligi huquqiy normalar va tashkiliy harakatlar qo'llanishi natijasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, jamoat xavfsizligi jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilishning nihoyatda muhim nazariy va amaliy muammosi ekani, uni hal etish mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash strategiyasini belgilash bilan uzviy bog'liqligi qayd etiladi [8, 18 b.].

E'tiborga sazovor yondashuv shundan iboratki, jamoat xavfsizligi jamiyatning ma'lum tarixiy va tabiiy sharoitlarda izchil rivojlanishini ta'minlaydigan, ichki va tashqi mojarolar natijasida yuzaga keladigan tahdidlardan himoya qiladigan ijtimoiy munosabatlarning muayyan sifati sifatida qaraladi. M. Ziyodullaev yanada ixcham va mazmunli ta'rif beradi: "Jamoat xavfsizligi - bu shaxs, jamiyat va davlatning huquqbuzarliklar, boshqa g'ayriijtimoiy xulq-atvor ta'siri, tabiiy, texnogen va ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan favqulodda holatlar oqibatlaridan himoyalanganligi holati hisoblanadi". Biroq, bizning fikrimizcha, mazkur tushuncha bundan kengroqdir, chunki u nafaqat ma'lum himoyalanganlik holatini, balki mazkur holatga erishishga qaratilgan faoliyatni, shuningdek bunda qo'llaniladigan tashkiliy-huquqiy instrumentariy va boshqa elementlarni ham o'z ichiga oladi. Aniqroq va mazmunan boyroq ta'rifni M. Ziyodullaev beradi: "Jamoat xavfsizligi - bu shaxs, jamiyat va davlatning huquqbuzarliklar, boshqa g'ayriijtimoiy hulq-atvor ta'siri, tabiiy, texnogen va ijtimoiy hususiyatga ega bo'lgan favqulodda holatlar oqibatlaridan himoyaganligi holati hisoblanadi".

Asoslab o'tilganlardan kelib chiqqan holda, jamoat xavfsizligining tizimli xarakterga ega ekanligini alohida qayd etish lozim. Jamoat xavfsizligi – tizimdir, u bir qator elementlarni qamrab oluvchi murakkab ko'p tuzilmali fenomen bo'lib, mazkur elementlar majmui uning

yaxlit hodisa sifatidagi yangi xususiyatini shakllantiradi. Shuning uchun turli olimlarning milliy xavfsizlikning tizimliliği haqida bildirgan fikrlarini ko'rib chiqib, mazkur masalaga mualliflik yondashuvini shakllantirishga harakat qilamiz.

Yuqorida keltirilgan fikrlar va olimlarning yondashuvlaridan kelib chiqib, jamoat xavfsizligi murakkab siyosiy-huquqiy hodisa bo'lib, ko'plab sifat va xususiyatlar bilan tavsiflanadi hamda bir qator elementlarni - institutsional hamda funksional elementlarni o'z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, mazkur fenomenning quyidagi elementlarini ajratish mumkin:

- obyekt, ya'ni jamiyat va davlatga sezilarli zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy ne'matlar, ehtiyojlar, munosabatlar va qadriyatlar (jamoat va huquqiy tartib, infratuzilma va boshqalar);

- omillar va shart-sharoitlar, ya'ni jamoat xavfsizligi uchun xavf tug'diruvchi (xatarlar, tahdidlar va boshqalar), jamiyat va davlat manfaatlariga real yoki potensial zarar yetkazishga qodir salbiy hodisalar;

- subyektlar, ya'ni davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari, jismoniy va yuridik shaxslar, nodavlat tashkilotlar hamda jamoat muassasalarining boshqa ishtirokchilari, jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayoniga jalb etilganlar;

- maxsus instrumentariy, ya'ni jamoat xavfsizligini ta'minlashga, mazkur sohada belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan maxsus vositalar, tartib, protseduralar, chora-tadbirlar, harakatlar;

- maxsus usullar, ya'ni jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida qo'llaniladigan shakllar, usullar, texnologiyalar va metodlar majmui;

- natija, ya'ni jamoat xavfsizligining yuqori darajasi va sifati, jamoat va huquqiy tartibning ta'minlanganligi, qonuniylikning qaror topganligi, ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi, qo'yilgan maqsad va vazifalarning amalga oshirilganligi bilan tavsiflanadigan holat.

Jamoat xavfsizligi o'zining ko'p qirraliligi doirasida transport xavfsizligi, ya'ni transportdagi xavfsizlikni ham o'z ichiga oladi. Mustaqil jamoat xavfsizligi turi sifatida u ma'lum obyekt – temir yo'l transportining himoyalanganlik darajasini, uning tashqi va ichki tahdidlarga qarshi turish qobiliyatini aks ettiradi (aloqa yo'llarining xavfsizligi, vokzallar, yuklar va yo'lovchilar xavfsizligi va boshqalar). U mazkur obyektning himoyalanganlik holatini (yuk va yo'lovchi tashish xavfsizligi, navigatsiya xavfsizligi, temir yo'l harakatining xavfsizligi va boshqalar) tavsiflaydi.

Bunday ajratish shundan kelib chiqadiki, temir yo'l transportiga nisbatan "xavfsizlik" kategoriyasi mutlaq emas, u mazkur obyektning muayyan xususiyatlari, uning faoliyati bilan bog'liq holda mazmun kasb etadi. Kategoriyaviy-metodologik tahlil temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida uning turli-tuman tarkibi va murakkabligi bilan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarini ajratishni nazarda tutadi.

Bizning fikrimizcha, "temir yo'l transporti texnik xavfsizligi" tushunchasining mohiyatini aniqlab olish ham zarur. Ushbu tushuncha temir yo'l transportining texnik tizimi xavfsizligini, ya'ni texnik kompleks sifatida temir yo'l transporti faoliyatining uzluksiz va me'yoriy amalga oshirilishini ta'minlovchi sharoitlar majmuini anglatadi. Bunda temir yo'l transportidagi ko'plab hodisalarning sababi sof texnologik talablarga rioya qilinmasligi, texnik vositalardan foydalanish va harakat qoidalarining buzilishi ekanini e'tiborga olish lozim.

Mazkur kontekstda temir yo'l transportida jamoat xavfsizligi turli subyektlar, omillar va xatarlar o'rtasida shakllanadigan, huquqiy, tashkiliy va texnik qoidalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi hamda davlat va jamoat manfaatlariga, qadriyatlariga va ehtiyojlariga tahdidlarning oldini olish, ularni bartaraf etish yoki minimallashtirishga yo'naltiriladi. Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligi bir qator qoidalar va talablar amalga oshirilishi, bajarilishi va ta'minlanishi orqali ta'minlanadi.

Shunday qilib, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligi mazkur transport turining butun infratuzilmasi, odamlari va mulki bilan birgalikda uning normal, uzluksiz va samarali

faoliyatini ta'minlash jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar majmuini o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash ko'p qirrali davlat faoliyati bo'lib, temir yo'l transporti faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus yondashuvni talab etadi. Jamoat xavfsizligi davlat xavfsizligi tizimining tarkibiy qismi sifatida jamiyatning barqaror rivojlanishi va fuqarolarning hayot faoliyati uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Shu bois, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil qiladi.

Shu munosabat bilan temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash mazkur sohaga xos bo'lgan huquqiy tartibga solishning murakkab tizimini shakllantiradi. Ushbu tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- temir yo'l transporti obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmui;
- temir yo'l transportida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy va boshqaruv faoliyati;
- xavfsizlik sohasida davlat organlari va boshqa subyektlarning o'zaro hamkorligi;
- xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish, ularni bartaraf etish va minimallashtirishga doir chora-tadbirlar tizimi;
- temir yo'l transportidan foydalanayotgan yo'lovchilar, xodimlar va boshqa shaxslarning xavfsiz xulq-atvori va huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha kompleks ishlar.

Ba'zi olimlar jamoat xavfsizligi sohasida (jumladan, temir yo'l transportida) shakllanadigan munosabatlarga nisbatan "transport xavfsizligi" termini qo'llaydilar. Bugungi kunda transport xavfsizligi, uni ta'minlash zarurati, davlat rivojlanishining dolzarb muammosiga aylanib bormoqda. Mutaxassislar fikriga ko'ra, u turli transport turlaridan foydalanish jarayonida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimini, transport va transport infratuzilmasini noqonuniy aralashuv aktlaridan, shuningdek texnik va tashkiliy tahdidlardan himoya qilishni o'z ichiga oladi. Tizimli-faoliyat yondashuvini qo'llagan holda, olimlar transport xavfsizligini fuqarolik-huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan transport faoliyati xavfsizligi sifatida, turli tahdid turlaridan himoyalangan faoliyat sifatida, tegishli davlat organlarining huquq-tartibot va xavfsizlikning tegishli tartibini ta'minlashga qaratilgan faoliyati sifatida, shuningdek turli transport turlarida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurash sifatida ajratib ko'rsatadilar.

Bugungi kunda transport xavfsizligining mustaqil institutini shakllantirish haqida so'z yuritilmoqda. Mazkur institut qo'llanish sohasi, funksiyalari, xavf manbai, subyektlari, obyekti va boshqalar kabi asoslar bo'yicha tasniflanishi mumkin bo'lgan turli choralar, vositalar, qoidalar, talablar va sanksiyalarni o'z ichiga oladi. Mazkur termin "transport xavfsizligi" tushunchasi "transportda jamoat xavfsizligi" tushunchasiga nisbatan tur tushunchasi ekanligini hisobga olgan holda, ko'rib chiqilayotgan hodisani tadqiq etishda to'liq qo'llash mumkin, deb hisoblaymiz. Bizning fikrimizcha, "transport xavfsizligi" tushunchasining mazmuni "transportda jamoat xavfsizligi" (shu jumladan - temir yo'l transportida) tushunchasining mazmunidan kengroq bo'lib, yanada hamma tomonlama xarakterga ega va uni o'z ichiga oladi.

Mazkur institutning shakllanish jarayoni davom etayotganligi sababli, transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash muammolari ham ilmiy tadqiqotlar mavzusiga aylanib bormoqda. Chuqur tahlilni talab etadigan ko'plab bahsli masalalarning hal etilishi transportda jamoat xavfsizligi sohasidagi nazariya hamda qonunchilikning tushunchaviy apparatini ishlab chiqish, shuningdek tegishli huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish masalalarini o'rganishga bog'liqdir. Bu esa, jumladan ma'muriy-huquqiy yo'nalishdagi chuqur ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, 2022-2025-yillarda jamoat xavfsizligi tizimini rivojlantirish strategiyasi, shuningdek qonunlar va qonunosti normativ-

huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda transportda jamoat xavfsizligi mustaqil obyekt va maxsus huquqiy kategoriya sifatida tilga olinmagan, garchi mantiqan u jamoat xavfsizligining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini taxmin qilish mumkin.

Bunday holat qonun chiqaruvchining transportda jamoat xavfsizligi sohasini tartibga solishdagi yondashuvlarida tizimlilikning yo'qligidan dalolat beradi. Tegishli qonunchilikda transportda (havo, temir yo'l, avtomobil, daryo va boshqalar) xavfsizlik masalalariga oid tarqoq normalar mavjud. Shu sababli biz transport xavfsizligi institutining tushunchaviy apparati va ta'riflarini ishlab chiqish, shuningdek uning tartibga solish funksiyalari va vazifalarini aniqlash zarur, deb hisoblaymiz.

Transport xavfsizligini ta'minlash, ushbu munosabatlarning subyektlari va obyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish sohasida davlat boshqaruvi vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rsatilgan muammolar temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini huquqiy tartibga solish sohasida ham kuzatiladi. Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, havo (aviatsiya) va avtomobil transporti sohalaridan farqli o'laroq, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligiga oid masalalar yetarlicha tartibga solinmagan, bu yerda ko'plab bo'shliqlar, kolliziyalar va boshqa kamchiliklar mavjud.

Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligi davlat tomonidan belgilangan maxsus huquqiy va tashkiliy-texnik qoidalarga qat'iy rioya etish va ularni barcha ishtirokchilar tomonidan bajarish asosida shakllangan ijtimoiy munosabatlar tizimidir. Ushbu tizimning maqsadi tashish jarayonida hamda ular bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish chog'ida inson hayoti, sog'lig'i va mulkini muhofaza qilish, temir yo'l transporti obyektlari va inshootlarining buzilishi yoki shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek yo'l xo'jaligini ekspluatatsiya qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa og'ir oqibatlarining oldini olishdan iboratdir. Shu bilan birga, xavfsizlik choralari qo'llash chegaralarini aniqlab olish muhim bo'lib, bu ijtimoiy, normativ-huquqiy, moddiy (faktik) va tashkiliy asoslarni aniq belgilash orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini jamoat xavfsizligining turlaridan biri, ya'ni ushbu tizimning tarkibiy elementi sifatida qarash lozim. Uni ta'minlash vositalari, shakllari va usullari jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi bilan umumiy tarzda uyg'unlashtirilishi zarur, bunda ushbu jamoat xavfsizligi turining o'ziga xos jihatlari, obyekti va vositalari (instrumentariysi)ning xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Bugungi kunda temir yo'l transportini mamlakatning butun transport infratuzilmasidan ajratgan holda ko'rib bo'lmaydi, shu sababli transportda jamoat xavfsizligi ko'p jihatdan uning tashkiliy-huquqiy ta'minotiga, shu jumladan ma'muriy-huquqiy asoslariga bog'liqdir.

Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash - bu temir yo'l transporti faoliyati sohasida xavf-xatarlar, g'ayriqonuniy harakatlar va tahdidlarga, shu jumladan tabiiy hamda texnogen xususiyatga ega bo'lgan xavflarga qarshi kurashish va ularni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy va boshqa choralar tizimini amalga oshirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Ma'muriy-huquqiy tartibga solish mexanizmi temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solishni ta'minlaydigan huquqiy vositalar va shakllar (ma'muriy-huquqiy normalar, ma'muriy-huquqiy munosabatlar, ma'muriy-huquqiy hujjatlar) majmuini o'z ichiga oladi; bu esa belgilangan natijaga erishishni ta'minlaydigan huquqiy vositalar tizimidir. Transport xavfsizligini ta'minlash faoliyatining ma'muriy-huquqiy tartibga solinishi deganda, transportdagi asosiy xavfsizlik tahdidlariga qarshi ma'muriy-huquqiy vositalar tizimidan iborat tartibga soluvchi va himoya qiluvchi ko'rsatmalar majmui tushuniladi. Shu ma'noda, jamoat xavfsizligini ta'minlashning ma'muriy-huquqiy tartibga solinishi boshqa huquqiy tartibga solish turlari (jinoyat-huquqiy va boshqalar) bilan bir qatorda amalga oshiriladi.

Ta'kidlash lozimki, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligi ma'lum darajada boshqa xavfsizlik turlari iqtisodiy, ekologik, texnik va boshqalar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, uni

ta'minlashga oid huquqiy masalalar ba'zida davlatlararo ahamiyat kasb etadi, chunki bizning temir yo'l transportimiz mamlakat hududidan tashqarida ham harakatlanadi. Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash prinsiplari haqida so'z yuritar ekanmiz, quyidagi prinsiplarga alohida e'tibor qaratish zarur: inson huquq va erkinliklari ustuvorligi prinsipi; jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatida qonuniylik prinsipi; transportda xavfsizlik uchun davlatning javobgarligi prinsipi; xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi talablarni bajarish prinsipi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- temir yo'l transportida jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi noqonuniy harakatlar va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish;

- temir yo'l transportida huquqbuzarliklarni to'xtatish (barham berish);

- temir yo'l transportida tabiiy va texnogen xususiyatga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish;

- temir yo'l transportida favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish.

O'tkazilgan tahlilni umumlashtirar ekanmiz, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid quyidagi nazariy qoidalarni ajratish mumkin, deb hisoblaymiz:

- zamonaviy sharoitda temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashning ma'muriy-huquqiy tartibga solishiga oid nazariy-huquqiy jihatlarni har tomonlama ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etdi;

- temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini mustaqil tarmoqlararo huquqiy institut sifatida ajratish zarurati yetilib keldi, u bir qator huquq sohalari, shu jumladan ma'muriy huquq normalarini o'z ichiga oladi;

- temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashni huquqiy tartibga solish masalalariga nazariy yondashuvlarni shakllantirish ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va takliflarni ishlab chiqish imkonini beradi;

- transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida huquqiy tartibga solishning xorijiy tajribasini o'rganish va uni milliy amaliyotga joriy etish zarur;

- temir yo'l transportida huquqbuzarliklarning profilaktikasi ustuvor ahamiyat kasb etadi va maxsus huquqiy tartibga solishni talab qiladi.

References/Иқтибослар/Сноски:

1. Ismoilov, I. (2018). Obshchestvennaya bezopasnost: teoriya i praktika. Tashkent: Fan.
2. Ziyodullaev, M. (2020). Jamoat xavfsizligini ta'minlash: nazariy va huquqiy jihatlar. Tashkent: Nizomiy NMPU Press.
3. Panarin, S.A. (2017). Bezopasnost i gosudarstvennoe upravlenie. Moscow: Yurayt Publishing.
4. Kondrashov, B.P. (2016). Public Safety and Legal Regulation in Transport. St. Petersburg: Piter.
5. Gushchin, V.V. (2015). Sotsial'naya bezopasnost' i transport. Moscow: Aspekt-Press.
6. Tang, Sh. (2019). Concept of Safety in Transportation Systems. Beijing: Science Press.
7. Joldasov, A.F. (2021). Administrative and Legal Regulation of Public Safety. Tashkent: Uzbekiston Law Journal.
8. OECD (2023). Railway Transport Safety and Security Guidelines. Paris: OECD Publishing.
9. United Nations. (1992). Rio Declaration on Environment and Development. New York: UN.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-73-sonli Farmoni (2025). Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti tashkil etilishi to'g'risida. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik Huquqi.